

**ABU ABDULLOH IBN JAFAR RUDAKIY - DUNYO ADABIYOTINING
ULUG‘ NAMOYONDASI**

Abduraimov Dilshodjon Abduraim o‘g‘li,
University of Busines and Science (Toshkent filiali) Tillar kafedrası o‘qituvchisi
dilshodjonabduraimov8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz fors-tojik yozma adabiyotining yirik vakillaridan biri, asoschisi desak ham aslo mubolag‘a bo‘lmaydigan ulug‘ ijodkor Abu Abdulloh Rudakiy haqida qisqacha ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Mumtoz fors-tojik yozma adabiyoti, “Kalila va Dimna” tarjimasi, tarixi, Somoniyilar davri adabiy muhiti, Mumtoz sharq musulmon adabiyoti, she‘riyati.

Abstract. This article provides brief information about Abu Abdullah Rudakiy, one of the great representatives of classical Persian-Tajik written literature, the founder of which is no exaggeration.

Key words: Classic Persian-Tajik written literature, translation, history of “Kalila and Dimna”, literary environment of the Samanid era, Classic Eastern Muslim literature, poetry

Аннотация. В статье дается краткая информация об Абу Абдулле Рудаки, одном из выдающихся представителей классической персидско-таджикской письменной литературы, основоположником которой, без преувеличения, является Маулана Рудаки.

Ключевые слова: Классическая персидско-таджикская письменная литература, перевод, история «Калилы и Димны», литературная среда эпохи Саманидов, классическая восточно-мусульманская литература, поэзия.

Kirish. Bilamizki, Musulmon sharq mumtoz tasavvuf Fors-tojik adabiyotining qadimiyligi va boyligi haqida umumiy ma‘lumotlar bilan maqola matniga kirishar ekanmiz. Bunda mumtoz tasavvuf Fors-tojik adabiyotining buyuk vakili bo‘lgan Mavlono Rudakiyning ijodini hamda uning qalamiga mansub bo‘lgan shoh asarlari jihatdan dunyo adabiyotda tutgan o‘rni haqida so‘z yuritib o‘tamiz.

Avvalo, bunda Fors-tojik adabiyoti fors tilidagi og‘zaki va yozma asarlarni o‘z ichiga oladi va dunyodagi eng qadimgi adabiyotlardan biridir.

Bu adabiyotning yoshi ikki yarim ming yillikka etadi. Uning kelib chiqishi Buyuk Eronda, jumladan Eron, Iroq, Afg‘oniston, Kavkaz, Turkiya va Markaziy Osiyo mintaqalarida *Tojikiston va O‘zbekiston kabi* va fors tili ona yoki rasmiy til bo‘lgan Janubiy Osiyoda joylashgan.

Fors adabiyoti insoniyat buyuk adabiyotlaridan biri sifatida ta‘riflangan bo‘lib, bu haqida dunyo adabiyotining yana bir ulug‘ namoyondasi bo‘lgan nemis mutafakkir shoiri va adibi I.V.Gyote uni jahon adabiyotining to‘rtta asosiy ustunidan biri sifatida tilga oladi.

Asosiy qism. «Fors-tojik adabiyotining otasi» deb nom olgan Mavlono Rudakiyning she‘rlari bir million baytdan iborat bo‘lib, Mavlono Rudakiy to‘liq ismlari va nisbalari Abu Abdullah Ja‘far bo‘lib, hozirgi Tojikiston Respublikasi Panjakent tumani Panjrudak qishlog‘ida tavallud topganligi uchun ham shu nisbani, “Rudakiy”ni

olgan. Mavlono Rudakiy hazratlari milodiy (858-yil - 941-yillarda) yashab ijod etgan bo‘lib, mumtoz fors-tojik adabiyotining asoschisidir.

Mavlono Rudakiy hazratlari yoshligidan she‘riyat va musiqaga ixlos qo‘ygan, adabiyotni, arab tilini o‘rgangan Zamonasining mashhur cholg‘uchisi va musiqachisi Abul Abbos Baxtiyordan musiqa bo‘yicha ta‘lim olgan barbat, chang, ud, rud kabi cholg‘u-asboblarini chalishni o‘rgangan Dastlabki ma‘lumotni o‘z qishlog‘ida olgan Rudakiy o‘qish uchun Samarqandga bordi U yerda chuqur bilim olib, tez orada adabiyoti va san‘at sohasida ham dong chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Mavlono Rudakiy asarlariga e‘tibor berilsa, uning astronomiya va qadimiy yunon falsafasini ham yaxshi tushunganligini ko‘rish mumkin.

Somoniylar davlatining ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi, **Nasr II ibn Ahmadning** yaqin do‘sti **Abu Fazl Balyamiy Rudakiy** haqida “U faqat mashhur shoir bo‘libgina qolmay, balki o‘z davrining yetuk olimi ham edi”, deb baho bergan Rudakiyning she‘riyat va musiqadagi mahoratini eshitgan Buxoro hokimi Nasr ibn Ahmad Somoniy uni saroyga taklif etgan. Rudakiy Buxoroda vazir **Abul Fazil Baylamiy** homiyligida ijod qilib, san‘atda katta obro‘ qozongan.

Rudakiy 40 yil saroyda shoirlarga boshchilik qilgan Uning tug‘ma ko‘r bo‘lgani haqida naqlar bor. *Aslida saroydagi ig‘vo va fitnalar tufayli dushmanlari Rudakiyning ko‘zlariga mil tortib ko‘r qilgan, mol-mulkini talab, o‘zini Buxorodan badarg‘a qilishga erishganlar* [1.9].

Qarigan chog‘ida Rudakiy o‘z qishlog‘iga qaytib, faqirlikda umr kechirgan Mavlono Rudakiy mumtoz fors-tojik adabiyotida birinchi bo‘lib devon qoldirgan shoirdir. Manbalarda Rudakiy she‘riyati 100 000 baytdan iboratligi qayd etilgan. Lekin bizga qadar uning 1000 bayt asari (2 qasida, 50 ruboiy, she‘r va dostonlari) yetib kelgan bo‘lib, uning devonida , shuningdek, mumtoz she‘riy janrlardan; qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy va boshqa janrlardan iborat bo‘lgan Mavlono Rudakiyning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi orasida “*Modari may*” (“*May onasi*”) 933-yil) “*Qarilikdan shikoyat*” avtobiografik qasidasi va 40 ta ruboiysi to‘liq saqlanib qolgan ijodiy merosi - *madhiya, ishqiy, falsafiy didaktik*

mazmundagi asarlar parchalaridan iborat Rudakiy hind xalqining mashhur dostoni “*Kalila va Dimna*”ning arab tilidagi nasriy nusxasidan fors-tojik tiliga mas‘naviyda tarjima qilgan (932-yili) *Shoirning bizga yetib kelgan she‘rlaridan ma‘lum bo‘ladiki, u hayotdan zavq olishni, tabiat go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishni kuylaydi, yaratilgan jamiki narsalar, jumladan, tabiatning go‘zalligi ham, insoniyat uchun ekanini alohida ta‘kidlaydi.* [2.15].

Shoir qo‘llagan tashbehtar, tasvir usuli takrorlanmasdir Bu vositalar faqat tabiat manzarasi ifodasi bo‘lib qolmay, balki inson qalbi, ruhiy kechinmalarining ifodasi

hamdir: 701 Bahor oyi yetib kelib qish oyini etdi yag‘mo, Fazo yuzini qopladi chang, qonga to‘ldi dashtu sahro. Ilk bahorning ko‘z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang, Hamal oyin xush hididan bo‘ldi tuproq anbaroso. Quyidagi ruboiy ham, yuqoridagi singari, dunyoviy ishqning madhiyasi bo‘lib, jaranglaydi. Shoir psixologik (Ruhoniy) parallelizmdan va o‘xshatish (Tashbeh) san’atidan foydalanib, chin oshiqning va ma‘shuqaning obrazini yaratadi:

*Laylo yuzi kabi lola sahro bo‘ylab kulib turar,
Majnun ko‘zi kabi bulut qon yoshini qilur daryo.
Oqar suvdan kelmoqdalar har soatda gulob hidi,*

Mening yorim ariq ichra gul yuzini yuvmish go‘yo [3.109].

Rudakiy asarlarida ilm egallashga da‘vat, insonni sharaflash, bu dunyoda *bani odamga yaxshilik* qilib yashashga undov, Alloh tomonidan berilgan qisqa umrni ilm o‘rganib, uni faqat va faqat foydali mehnatga sarflashga da‘vat yetakchi motivlardan hisoblanadi. Bundan tashqari, Mavlono Rudakiy hazratlarining ijodiyotiga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunda adibining ijodida eng muhim jihat sifatida birinchi o‘rinda Gumanizm (Insonparvarlik) g‘oyasi yotganligini, shuningdek, adabning o‘zi ham zamonasining buyuk gumanist (insonparvar) shoiri va matafakkiri bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Misol uchun, Mavlono qalamiga mansub bo‘lgan ushbu baytlarga alohida diqqat qaratatigan bo‘lsak, mana shu holat va jarayonlarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

*Shu oddiy ko‘z bilan boqmagil, balki,
Bilim ko‘zi bilan boqqil jahonga.
Jahon dengiz erur yaxshi ishingdan,*

Kema yasab o‘tgil nargi tomonga. [4. 210].

Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida va undagi adolat talqinida adovat va hasad kabi illatni oldini olishda kechirimli bo‘lishlik fazilatini ilgari suradi Shoir insonni illatlardan, kamchiliklar va nuqsonlardan xoli ko‘rishni orzu qilibgina qolmay, bu illatlarning insoniyat uchun umuman xos emasligini isbotlashga intiladi.

Alloma insonlarni yaxshilarga yondashishga, ular etagini tutishga chorladi. Tabiatida yomonlik, pastkashlik illati bo‘lganlarga qo‘shilgan yuksak fazilatli insonlar ham o‘z ijobiy xislatlarini yo‘qotishi mumkin. o‘z xalqining qadim an‘analarini izchillik bilan davom ettiradi. Mavlono Rudakiy o‘zidan ilgari o‘tgan qadim fors-tojik adabiyotdan oziqlanib, ilhomlanib buyuk ijodkorlik salohiyatiga, darajasiga ko‘tarilgani shubhasizdir.

Mavlono Rudakiy haqida qiziq bir ma‘lumot uchraydiki, bu alloma shoirning ko‘zi ojizligi bilan bog‘liq ma‘lumot bo‘lib, bunda alloma shoirning zamondoshlari uning onadan tug‘ilgan vaqtdayoq ko‘zi ojiz bo‘lganligi haqidagi birinchi ma‘lumot bo‘lsa,

ikkinchi ma'lumot esa bu rus antropolog olimi Gerasimovning bergan ma'lumotiga qaraganda esa keksalik chog'da ko'ziga mil tortilib, mamlakatdan quvg'in qilinadi Rudakiy “Kalila va Dimna” nomli doston ham yaratgan. [5.59]

Bu dostonning bizga ayrim sahifalari yetib kelgan Rudakiy she'riyat bobida Homerni eslatsa, musiqa bobida yunonlar ulug'agan Orfeyni esga soladi, G'azal, ruboiy, qasida, qit'a janrlarida ijod qilgan shoir umrining anchagina qismini Buxoroda-Somoniylar davlatining hukumdori *Nasr II ibn Ahmad* saroyida sozanda va shoirsifatida o'tkazadi. Ehtimol, shuning uchundir, hayotlik chog'idayoq shoir nomi uzoq- uzoqlarga yetib boradi. U ning g'azal va qasidalarida xalq ijodiga xos mayinlik, ifodaviylik hukumron She'rlari insonga ko'tarinkilik ruhini bag'ishlaydi. Rudakiy do'stlikni, insoniylikni, ilm –ma'rifatni ulug'aydi

«Odamdan yuqori turarkan olam ,Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam », degan shoir nomi ijodi kabi barhayot bo'lib qoldi 13 Abu Abdulloh Rudakiy -fors-tojik adabiyotining poydevorini qo'ygan, Sharq adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan zabardast shoirdir Uning asarlari nafaqat badiiy mahorati bilan, balki insonparvarlik, axloq, ilm-ma'rifat va tabiat go'zalligini tarannum etishi bilan ham ahamiyatlidir. Mavlono Rudakiy hazratlari xalqona ruh, hayotga muhabbat, bilimga chanqoqlikni kuylab, kelajak avlodlarga bebaho meros qoldirgan. [6. 78]

Natijalar va muhokama. Uning ijodi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, badiiy so'z kuchini, g'oyaviy teranligini ko'rsatishda davom etmoqda Mavlono Rudakiy hazratlari nafaqat she'riyatda, balki musiqada, tarjimachilikda va axloqiy tarbiyada ham o'z davrining ulug' na'munasidir Shu bois, uning nomi va merosi abadiydir va fors-tojik adabiyotining faxrli sahifalarida porlab turaveradi. Biroq, keksa yoshida Mavlono Rudakiy hazratlari ko'p narsadan ayriladi. Qari va ko'zi ojiz, ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, ehtimol, Ballar bilan do'stlashib, karmanlar harakatiga qo'shilib qoladi va qiynoqlar sababli ko'z nuridan qolgan.

Oqibatda, saroydan quvilib, o'z ona yurtiga qaytgan. Shundan so'ng Rudakiy ko'p umr ko'rmagan. *Somoniy o'zining “Al-Ansab” kitobida yozishicha, shoir 941-yil (boshqa manbalarga ko'ra 952-yil) o'zining ona qishlog'ida vafot etgan. Bizning davrimizgacha Rudakiyning 2000 baytdan ziyod asarlari yetib kelgan. Rudakiyning saqlanib qolgan she'rlaridan o'z davrining barcha she'riy janrlarda yuqori mahorat ila ijod qilganligi namoyon bo'ladi. [6.190]*

U qasidalar, nasriy g'azallar, katta didaktik dostonlar (“Kalila va Dimna” va boshqa mashhur dostonlar majmuidan tashkil topgan to'plamlar), satirik she'rlar hamda matamona qasidalar yozgan. Rudakiy oddiygina saroy qasida yozuvchisi bo'lmagan.

Uning qasidalarini tabiatni yorqin tasviri, hayot hursandchiliklari va sevgini kuylash, aql va idrok, oliyjanoblik va hayot tashvishlari, inson va uning mehnatini ulug‘lash bilan boshlanadi. O‘z qasidalarida shoir hayot tajribasini ustun qo‘yadi va uni eng katta ustoz deb biladi. Rudakiy ijodida diniy mavzular, deyarli mavjud emas. Uning ko‘plab she‘rlarining ma‘nosi ostida chuqur falsafiy o‘ylar mavjud.

Rudakiy kirib kelgan qarilikning sababi nedur, deya so‘raydi va quyidagicha javob beradi:

Ko‘z ochqucha to‘zitar u qayerda yangi esa
Dam o‘tmayin tuzatar u qaydagi vayron edi.
Alaycha bog‘ning o‘rnini cho‘l etib qo‘ydi,
Va qancha bog‘lar o‘rni burun biyobon edi.

O‘z ijodi orqali Rudakiy butun tojik-fors she‘riyatiga asos soldi, asosiy janrlar va ularning shakllarini ishlab chiqdi; uning she‘rlarida, deyarli barcha she‘riy o‘lchamlar hamda timsol tizimlari aniq shakllandi. Rudakiy she‘rlari keyingi tojik shoirlar avlodi uchun namuna bo‘ldi. U X-XV asrlarda tojik va forslar orasida keng tarqalgan mumtoz she‘riyat asoschisiga aylanib, Firdavsiy va Xayyom, Saadi va boshqa buyuk allomalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Mazkur she‘riyat ijodkorlari Mavlono Rudakiy hazratlarining mehr ila yodga olib, uni o‘z ustozlari deb hisoblashgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytmog‘imiz lozimki, milodiy IX-X asrlarda shakllangan musulmon sharq mumtoz tasavvuf adabiyotining bir shahobchasi hisoblangan mumtoz fors-tojik adabiyotining ulug‘ vakili Mavlono Rudakiy hazratlari (Abu Abdullah Ja‘far) o‘zining butun ijodi davomida o‘zidan betakror ijod na‘munalarini yaratib, bugungi kunimizga qadar bo‘lgan davrda insoniyat yaratilganidan to hozirgi zamonamizgacha hamda dunyo adabiyotiga yuksak insonparvarlik (Gumanizm), insoniylik, sof sevgi-muhabbat, odamiylik, mehnatsevarlik, hayotsevarlik g‘oyalari bilan baholi qudrat hissa qo‘shganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Uning qasidalarini tabiatni yorqin tasviri, hayot hursandchiliklari va sevgini kuylash, aql va idrok, oliyjanoblik va hayot tashvishlari, inson va uning mehnatini ulug‘lash bilan boshlanadi. O‘z qasidalarida shoir hayot tajribasini ustun qo‘yadi va uni eng katta ustoz deb biladi. Rudakiy ijodida diniy mavzular, deyarli mavjud emas. Uning ko‘plab she‘rlarining ma‘nosi ostida chuqur falsafiy o‘ylar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev H. D. O‘zbek adabiyoti tarixi
2. Fayzulla Boynazarov. Jahon Adabiyoti. 24-bet
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gyote>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fors_adabiyoti
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Rudakiy#Hayoti>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/odamush-shuaro-abu-abdullohrudakiy>.